XALQ DEPUTATLARI SIRDARYO TUMANI KENGASHI
Q A R O R I

Sirdaryo tumani,"Yoshlik" MFY O'zbekiston ko'chasi 98-uy.tel: 377-10-58, 99 699 1947, 91 103 4549

2024 - yil 31 - yanvar VI-73-1-9-128-K/24 Sirdaryo tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq Sirdaryo tumanidagi nomi takrorlangan hamda nomsiz geografik obyektlarni nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq “geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarini tartibga solish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 295-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yil 14-dekabr kungi 02-18-1743-sonli ekspert xulosalariga asosan Sirdaryo tumanidagi beshta ko‘chalarga ijobiy xulosa berilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yil 14-dekabr kungi 02-18-1743-sonli ekspert xulosalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yil 14-dekabr kungi 02-18-1743-sonli ekspert xulosasida taklif etilgan ko‘chalar nomi 1-ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (U.Djanzakov), tuman Statistika bo‘limi (R.G‘aniyev), tuman Soliq inspeksiyasi (S.Ro‘ziyev),

Kadastr agentligi tuman bo‘limi (G‘.Yahshibaev), tuman Qurilish bo‘limi va tegishli mutasaddi tashkilotlarga:

- mazkur qaror ilovasi asosida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar e’tiborga olinsin va mazkur qarordan kelib chiqqan holda tegishli idoraviy hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (S.Jo‘rabayev) mazkur qarorni (Sirdaryo) gazetasida chop etilishini hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga o‘rnatilgan tartibda joylashtirilishini ta’minlasin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan rasman kuchga kirishi belgilab qo‘yilsin.

5. Mazkur qarorni bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining qonuniylikni ta’minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (B.Tavbayev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **B.Mirzaqulov**

Xalq deputatlari Sirdaryo tuman
Kengashining
2024-yil 31-yanvardagi
VI-73-1-9-128-K/24-son qaroriga
1-ilova

Yangi nom berilayongan ko‘chalar nomi

№	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni MFY	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi ga taklif etilgan nom	Respublika komissiyasi ekspertiza xulosasi
1.	Ko‘cha	Quyosh mfy	Ziyolilar	Mardona, So‘limdiyor, Voris	So‘limdiyor
2.	Ko‘cha	Zarshunos mfy	Ilg‘or	Donishmand, Yoqut, Omonlik	Yoqut
3.	Ko‘cha	Elobod mfy	Shifokor	Gulnohol, Shifonur, Dilbar	Shifonur
4.	Ko‘cha	Shirin mfy	Nomsiz	Buyuk yurt, Millatparvar, So‘limgo‘sha	Millatparvar
5.	Ko‘cha	Beshbuloq mfy	Nomsiz	Faxriylar, Jannatdiyor, Bektemir	Faxr